

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TURIZM FANLARINI O'QITISHDA TARIX
FANLARINING O'RNI, MUAMMO VA YECHIMLAR**

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi:

Xojimurod Xasanov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi:

Annotatsiya: *Maqola oliy ta'lism muassasalarida, ayniqsa turizmga ixtisoslashgan dargohlarda tarix fanlarini o'qitilishining ahamiyati va uning asosiy muammo va yechimlarga bag'ishlangan. Maqoladan ko'zlangan maqsad oliy ta'lism muassasalarida rivojlanib borayotgan dunyo talablariga javob beradigan darajada tarix fanlarini o'qitish, ularni targ'ib qilish hamda zamonaviy metodlardan foydalanishga doir muammolarning yechimlari ilmiy asosda qayd etilgan.*

Аннотация: Статья посвящена важности преподавания истории в высших учебных заведениях, особенно в школах туристического профиля, ее основным проблемам и решениям. Цель статьи - предоставить решения проблем, связанных с преподаванием истории, их популяризацией и использованием современных методов в высших учебных заведениях в той мере, в какой они отвечают требованиям развивающегося мира.

Annotation: *The article is devoted to the importance of teaching history in higher educational institutions, especially in tourism schools, its successful problems and solutions. The purpose of the article is to solve the problems associated with the teaching of history, its popularization and the use of modern methods in higher education institutions, to the extent that they impede the identification of the developing world.*

Kalit so'zlar: Tarix, nomutaxassis yo'nalishlar, interaktiv metodlar, zamonaviylik.

Ключевые слова: История, неспециализированные направления, интерактивные методы, современность.

Key words: History, non-specialized areas, interactive methods, modernity.

Kirish

Tarix insoniyatning buyuk xotirasidir. Unda ajdodlarning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi. Undan olingan ma'lumotlar, xulosalar va faxr tuyg'usi inson uchun kelajakka qo'yiluvchi ishonchli qadam manbai bo'ladi. Ushbu fikrni qardosh yozuvchimiz Chingiz Aytmatovning "...Zamindan mahrum qilish mumkin, boylikdan mahrum qilish mumkin, hayotdan ham mahrum qilish mumkin. Lekin inson xotirasiga tajovuz qilish... chidab bo'lmas fojiadir", degan fikri bilan yanada asoslash mumkin. Prezidentimizning deyarli har bir chiqishi, nutq va risolalarida tarixiy xotiraga tayangan holda faxr va iftixorni yuksaltirish milliy o'zlikni asrab qolishning asosiy

omillardan biri ekaniga alohida urg‘u berilmoqda. Shuning zaminida tarixni o’rganish o’ta muhim sanaladi.

Tarix fanlarining oliy ta’lim muassasalarida talabalarga o’qitilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Dunyoning barcha davlatlarida o’rta maxsus ta’lim muassasalaridan keyin ham xar bir davlat oliy ta’lim muassasalarida o’z yurti tarixini fan sifatida o’rganish davlat fuqarolarini siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy va marifiy dunyoqarashini shakllantirishning eng asosiy tayanchi bo’lib xizmat qiladi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, hozirda oliy ta’lim muassasalarida tarix fanining ahamiyati bir muncha pasaygandek go’yo, yoki uning ahamiyatini boshqa fanlardan ustunroq qo’yishmoqda.

Asosiy qism. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida qanday mutaxassis yo’nalishida tahsil olishidan qa’tiy nazar talabaning yetuk shaxs va faol dunyoqarashga ega fuqaro bo’lib yetishishida, fikrlashning to’g’ri shakllanishida tarix fanlari alohida rol o’ynaydi. Bu masalaga prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ham alohida ahamiyat berilmoqda. O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 iyun kuni «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O’zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror «O’zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o’qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o’quv-metodik, ma’rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta’lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta’lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o’quvchilarida, oliy o’quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida» qabul qilingan. Aynan shu qaror samarasi sifatida "O’zbekiston tarixi" fanini bakalavr yo’nalishlarga fan sifatida o’tilishini ta’minlash maqsadida darsliklar ishlab chiqilmoqda. So’nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash va rivojlantirish maqsadida talabalarning mutaxassis fanlariga berilayotgan e’tiborning kuchayishi ortidan tarix fanlari nomutaxassis fanlar qatorida soat hajmi jihatidan qisqarib boryotgani o’qituvchi-pedagog tomonidan fanning to’liq mazmunini yoritib berish va talab darajasida bilimlarni yetkazib berish uchun yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Tarix o’qitish jarayonida boshqa ijtimoiy fanlar bilan o’zaro bog’liqligidan kelib chiqib materiallar tayyorlash, masalan geografiya, fuqarolik bilimlari, diniy madaniyat va axloqshunoslik fanlaridagi ma’lumotlardan foydalanish talabalarga nafaqat mavzularni yaxshiroq o’rganishga yordam beradi, balki umuman ijtimoiy voqeqliklarni idrok etish va real hayotni tushunish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o’quvchilarning aqliy

rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz Oliy ta'lif muassalarini tarixga bo'lgan e'tibor tushayotganini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda hayotimizning har bir sohasi tarix bilan chambarchas bog'langan . Masalan: Yaqin 5 yillik ichida eng katta e'tibor berilayotgan turizm sohasi ham tarix bilan azal-azaldan bog'langan . Tarixni bilmagan gid hamroh hech qachon turistlarda mamlakat haqida yaxshi taasurot qoldira olmaydi . Bizning o'tmishdagi mashhur bobokalonlarimiz haqida ma'lumotga ega bolmaslik nafaqat bizni, balki mamlakatimizning ham siyosiy maydondagi obro'yiga ta'sir qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lif muassalarida tariz fani uchun kam soatlar ajratilishi ham bunga yaqqol sabab bo'la oladi .

Bugungi kunda asosiy ahamiyat "O'zbekistonning eng yangi tarixi" ga qaratilgan bir paytda , dunyo e'tibori bizning tarixiy majmualarimizga qaratilgan . Biz bugungi yosh avlodga vatanimiz tarixini yaxshilab o'rgatmasak qanday qilib ularda Vatanga bolgan muhabbatni singdirishimiz mumkin ? Shuning uchun ta'lif tizimining har bir qatlamida biz yoshlarga bizning haqiqiy tariximizni, bobokalonlarimiz kimligini tushuntirishimiz kerak . Shundagina ular kelajakda bizning tariximiz haqida butun dunyoga jar soladilar. Bunda eng avvalo biz turizm sohasida tarixning o'rniga katta ahamiyat berishimiz kerak . Har bir shu sohada o'qiyotgan talaba shu sohaga ta'lluqli barcha ma'lumotlarni bilishi shart . O'tmish tariximiz haqida xabar beruvchi manbalariga e'tiborimizni qaratsak, qadimgi davrlardagi dинiv e'tiqoddagi zivoratchilarni ham ilk savohatchilar qatoriga qo'sh ishimiz mumkin. Barcha din vakillarining muqaddas deb bilgan o'z qadamjolari — ziyyaratgohlari mavjud. O'tmish davrlarini tasavvur qilsak, kishilar nimalargadir e'tiqod qilishgan, signishgan. Kerak bo'lsa, shu yolda qurbanlik ham amalga oshirishgan. E'tiqod qilish yoki sig'inish maqsadida bir hududdan ikkinchi bir hududga borishgan va diniy amallarini bajarishgan. Odamlarning e'tiqod qiluvchi kitoblari Olloh tom onidan bandalariga yuborib turilgan. Ushbu kitoblarga muvofiq e'tiqod qilingan. Masalan, musulmonlar haj ziyyorati tufayli farz amallaridan birini ado etishgan, ta'bir joiz bo'lsa, sayohat qilishgan. Demak, kishilar diniy-ziyorat maqsadida borib, sayohatchilar toifasiga qo'shilganlar. Shuningdek, buddizm va xristian dirlari vakillarining muqaddas deb bilgan joylariga uyushtirgan qadim ziyyoratlari ham sayohatlardir. Shu bois, necha ming yillar avval bo'lib o'tgan bundav ziyyoratlarni ilk savohatlar, ularning ishtirokchilarini esa ilk sayohatchilar qatoriga kiritamiz.

O'zbekistonning o'tgan asrdagi turizmga qaratilga e'tiborga nazar tashlasak XX - asrning ikkinchi yarmidan keyin sobiq Ittifoqda ham turizmga e'tibor qaratildi. Ushbu turistik sayohatlarni asosan sobiq sotsialistik davlatlarga uyushtirishni ko'zda tutdi. Bu hukumat 1969 yil 26 iyun ittifoqdosh respublikalarda turizmni rivojlantirish to'g'risida farmon chiqardi. Shundan keyingi yillar davomida Hamdo'stlik davlatlarida turizm shakllana boshladi. Biroq, ta'kidlash joizki, uzoq mustabit tizim davrida qadimdan

shakllanib kelgan sayyohlikning o'ziga xos xususiyatlari ancha yo'qolib ketgan edi. Binobarin, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlarda turizmning yangi yo'nalishlari vujudga kela boshladi. Afsus bilan aytish lozimki, 70 - yillik qatog'onlik deb atalmish sovetlar davrida jahon turizmining nihoyatda rivojlanishi, xo'jalikning muhim tarmog'i sifatida shakllanishi asosan G'arbiy Yevropa, Amerika va Sharqiy Osiyo davlatlarida ko'zga tashlandi, bizda esa, aksincha, u unchalik taraqqiy etmadи.

Buni misolini Turizmga ixtisoslashgan har bir sohada ko'rishimiz mumkin. Bugungu kunda universitetlarda katta e'tibor "O'zbeistonning eng yani tarixi"ga qaratilayabdi . Lekin , afsuski o'z tarixini bilmagan inson qanday qilib davlatini buyuk kelajagi uchun poydevor bo'lishi mumkin ? Shumning uchun ayniqsa, turizm sohasida tahsil olayotgan har bir talaba nafaqat o'z tarixini ,balki dunyo tarixini ham yaxshi bilishi zarur . Buning uchun davlatimiz tomonidan yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda .

Oliy ta'lim tizimida tarix fanlarini o'qitish deganda, tarixiy material vositasida talabalarga bilim berish, ularni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, vatanga muhabbat va kamol toptirish vazifalarini amalgalash oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi va o'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi. Tarix fanini nafaqat mutaxassis tarix yo'nalishi bakalavriati talabalariga balki, boshqa nomutaxassis bakalavriat yo'nalishlarga o'tilishi qanchalik ahamiyatl? Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim soxasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasida ko'plab nomutaxassis fanlar olib tashlanmoqda, lekin aynan tarix fani oliy ta'limda nomutaxassis bakalavriat o'quv rejalarida saqlab kelinmoqda. Bu holat faqatgina bizning yurtimizdagi jarayon emas, balki juda ko'plab rivojlangan davlatlarda tarix fani majburiy fanlar ro'yxatida turadi. Tarix fanini nomutaxassis majburiy fanlar ro'yxatidan joy olishi XIX asrga borib taqaladi. Aynan shu asrga kelib, tarix fani vujudga kelgan majburiy va zamonaviy o'quv muassasalarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'la boshlagan. Dastlab Yevropa davlatlari oliy ta'lim tizimida asosan "milliy o'ziga xoslikni rivojlantirish va itoatkor inson tarbiyalash maqsadi"da o'qitilgan. Ikkinci jahon urushigacha tarix saboqlari madaniyatni singdirish asosida, itoatkor va yaxshi fuqarolarni tarbiyalash maqsadida olib borilgan. Biroq, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda tarix fani ta'limni demokratlashtirish, inson huquqlari tushunchasiga urg'u berish va urushlarning oldini olish maqsadida tarix fanlarini o'qitish tushunchasi va metodologiyasiga o'zgartirish kiritildi. Bundan tashqari, texnologik va iqtisodiy o'zgarishlar hayotni murakkablashtirdi va odamlar ega bo'lishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar diversifikatsiya qilindi. Ushbu hodisalar an'anaviy tarix darsini qaytadan ko'rib chiqish masalasini dolzarb mavzuga aylantirdi.

Shunday insonlar borki, ular tarix fani talabalarga hech qanday foyda bermaydi, aksincha uning o'rniga ularga zamoniy fan va kasblar o'rgatilishi lozim deb hisoblashadi. Ammo, tarix faning oliy ta'lim muassasasidagi ahamiyati bu yoqda tursin,

xattoki oddiy kundalik hayotimizda uning zarurligini bir necha o'n yillar oldin ingliz tarixshunoslari isbotlab o'tishgan. 1960 yillarning oxirida Angliyada tarix fanlari nomlar, son va raqamlar hamda juda ko'plab boshqa elementlar asosida o'qitilishi tanqid qilindi. Olim va faylasuflar orasida bahs munozaralar shu qadar avj olib ketdiki, bir guruh olimlar tarix kursini o'quv dasturidan olib tashlash kerak, chunki u talabalarni o'sha kun sharoitida hayotga tayyorlay olmaydi degan mulohazalarni o'rta ga qo'ydi. 60-yillarning oxirida ayniqsa Angliyada tanqid natijasida tarixni o'qitishda ta'lif oluvchini tarixiy bilim va munosabatdan tashqari kundalik hayotga qanday tayyorlashi mumkinligi keng ko'lamda tadqiq qilindi. Ijtimoiy so'rovnomalari o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida ta'lif oluvchilar tarix darslari orqali qanday ko'nikmalarni egallashlari mumkinligini aniqlandi. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot tarix darsini zamonaviy hayot bilan qanday bog'lash mumkinligini ko'rsatishda muhim rol o'ynadi.

Shuning uchun har bir turizm sohasida faoliyat yuritadigan shaxs o'z taixini yetuk darajada bilishi va buni chet elliklarga o'rgatishi , mamlakatimizning dunyo arenalaridagi mavqeyiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ohirgi 20-30 yil davomida dunyodagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tarix faniga ham o'z tasirini ko'rsatdi. Oliy ta'lif muassasalarida fanni o'qitilish jarayonida tarixiy hodisa taasurotini jonlantirish maqsadida axborot texnologiyalar vositalari yordamida bilimlarni yetkazib berish dars jarayonini tashkil qilishning eng asosiy unsurlaridan biriga aylanib bormoqda.

Umuman olganda, talabalarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlariga bo'lgan tafakkur tushunchalarini o'stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib xulosalar chiqarishda zamonaviy ta'lif usullaridan keng va o'rinali foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Chunki tarixiy ma'lumotlarni taqqoslab o'rganish ularni mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarning mohiyatini tushunish, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining obektiv-subektiv sabablarini aniqlash, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, tarixiy voqealarni jonlantirish hamda ularning tarixiy tafakkurlarini shakllantirish ham turizm sohasida ham kundalik hayotida muhim o'rinni tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - B.27.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. - Toshkent: Shark, 1998. - B. 31
3. Toshev, S. (2020). Uzbekistonning sovet mustamlakachiligi davri tarixini urganishda turk tilidagi manbalarni urni. In Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadsisotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari (pp. 121-127).

4. Jabborova Onahon Mannopovna, Jumanova Fatima Uralovna, & Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 40874095.
5. Jabborova Onakhon Mannopovna. (2019). Psychological and Pedagogical Foundations of the Formation of the Artistic Perception of Students in Secondary Schools. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 7(10), 9-14.
6. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1229-1232.
7. Mamadaliev K. R., Jabborova O. M., Umarova Z. A., & Abdullayeva B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature - A Requirement of Modernity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(1), 612-619.